



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

## BOSHLANGICH SINIF O‘QUVCHILARIDA INTELLEKTUAL QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SHARTLARI

**Shamuratova Muazzamxon Shavkat qizi,**  
*NDPI tayanch doktoranti*

*Annotatsiya: O‘quvchilarida intellektual qobiliyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik shartlari haqida ma‘lumot keltirilgan.*

*Kalit so‘zlar: qobiliyat, psixologiya, qobiliyatning ko‘rinishlari, inson, o‘quvchi*

Ilmiy adabiyotlarda “**qobiliyat**” atamasiga turlicha ta‘rif beriladi. Xususan, biror ishni ma‘lum darajada amalga oshirish uchun bilim va ko‘nikma, intellektual, mantiqiy, abstrakt o‘y-xayol, tushunish, o‘z-o‘zini baholash, aloqaga kirish, o‘rganish, emotsional bilimlarga ega bo‘lish, rejalashtirish yoki muammoni hal qilish imkonining mavjudligi sifatida ifodalanadi. Qobiliyat, shuningdek, biror inson yoki narsa haqida bilimga ega bo‘lish, ya‘ni turli ma‘lumotlar, faktlar, ko‘nikmalarni egallashni ham angalatadi.

Inson o‘z imkoniyatidan to‘liq va maqsadli foydalangandagina samarali natijani qo‘lga kiritishi mumkin. Bunda kishilarning fikri yoki voqea-hodislar (ijtimoiy-siyosiy) ning sodir bo‘lishiga ham ta‘sir o‘tkazish imkoniyati ham nazarda tutiladi. Jismoniy rivojlanish jihatidan qaralganda esa kishining biror ishni amalga oshirish uchun fiziologik layoqati mavjudligini anglatadi. Qobiliyat insonning individual salohiyati, imkoniyatlarini anglatgani sababli u inson tomonidan ko‘nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo‘lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o‘z ichiga oladi. Umumiy qobiliyat deganda yuksak aqliy imkoniyat va taraqqiyot tushuniladi. U tabiiy ravishda shakllanishi va muayyan reja asosida rivojlantirilishi mumkin.

**Qobiliyat nimalarga bog‘liq?** Bilish orqali inson dunyoni anglaydi, unda kechayotgan voqea-hodisalarni tahlil qiladi. Aqliy qobiliyat esa miyada to‘plangan ko‘nikmalarning ishga tushirilishi natijasida namoyon bo‘ladi. Masalan, jiringlayotgan qo‘ng‘iroqq javob berish, trubkani olib gapirish, suhbatdosh bilan aloqaga kirishish, ovoz ohangini o‘zgartirish idrok qilish natijasida tartiblashtiriladi. Aqliy qobiliyat va ko‘nikmalar asab tizimi orqali amalga oshiriladi.

Quyidagi jadval yordamida bilimning bosh miya faoliyati bilan bog‘liqligini kuzatish mumkin.



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŇ INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

Sezish	Sezgi organlari (ta'm bilish, eshitish va h.k.) yordamida qabul qilingan ma'lumot.
Diqqat	Ma'lum ob'ekt, harakat, o'ygga ahamiyat berish, e'tiborini biror mavzu yuzasidan jamlash.
Xotira	Qisqa muddatli/ joriy xotira/uzoq muddatli xotira
Jismoniy imkoniyat	Muskullar va tana a'zolarining harakatga kelishi.
Til imkoniyati	Tovushlar yordamida so'z hosil qilish.
Vizual yoki fazoviy jarayon	Tasvirni anglash, uni tasavvurida qayta jonlantirish.

## Qobilyat ko'rinislari

- ❖ Tadbirkorlik — biror ishni amalga oshirishda aqliy va ruhiy imkoniyatini ishga solish;
- ❖ Miya faoliyati — insonlarning ichki dunyosi va ularning maqsadini angash;
- ❖ Oldindan his etish — ko'zlangan ish yuzasidan oldindan qaror chiqarish;
- ❖ Muammoni o'z vaqtida hal qilish — yuzaga kelgan vaziyatni ijobiy hal etish;
- ❖ Qaror qabul qilish — to'liq axborot asosida his-tuyg'ularni ishga solib ongli ravishda harakat qilish;
- ❖ Hissiy boshqarish — ichki kechinmalarini aniqlash va ularni boshqarish;
- ❖ Oldini olish — murakkab vaziyatlarni yuzaga keltirmaslik uchun aqlni ishlatish.

Qanday xususiyat bilan o'z kasbining ustasi bo'lish mumkin? Buyuk insonlar tug'ma iste'dod egasi bo'ladimi yoki qobiliyat shakllantiriladimi? Mazkur mavzu yuzasidan Florida davlat universiteti psixologi K.Anders Erisson hamtadqiqot olib bordi. Unga ko'ra, qobiliyat hayotiy tajriba orqali boyib boradi. "Association for Psychological Science" jurnalida keltirilishicha, tajriba orqali bilim va ko'nikmaga ega bo'lish mumkin. Biroq bu vaziyatda insonning irsiyati orqali "meros" bo'lib o'tgan tug'ma iste'dodni ham unitmaslik kerak.

Olimlar qobiliyatning eslab qolish bilan bog'liqligini aniqlash maqsadida tajriba o'tkazdi. Unga ko'ra, 57 nafar pianinchi jalb etilib, ulardan hayotida eshitmagan musiqani ijro etish so'raldi. Musiqachilar avvaliga xato qilib tajribalardan so'ng kuyni pianonida mahorat bilan chalib berishdi. Uzoq muddatli mashg'ulotlardan so'ng mavjud kamchiliklar ham bartaraf etildi. Yana bir tadqiqotchilar olib borgan tadqiqotda esa matematik, texnik, ya'ni aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi soha



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

vakillarining qanchalik xotira imkoniyatlari yaxshi ishlasa, shunchalik uning intellektual salohiyati ham yuqori bo'lishi aniqlandi.

Qobiliyatning tug'ma iste'dod bilan bog'liqligi va xotira ham unga ta'sir qilishi aksariyat insonlarni tashvishga solishi tabiiy. Biroq hayotning davomiyligi, ya'ni qobiliyatni yillar davomida shakllantirish mumkinligi oldindagi to'siqlarni bartaraf etadi.

Qadimgi Yunonistonda mantiqiy fikrlash, ya'ni ramziy, faktlar bilan tafakkurni charxlash juda rivojlangan. Yunonlar mantiq fani insonning his-tuyg'ularini ifodalash uchun zarur, deb hisoblashgan. Misol uchun, XVIII asrda Evropa aholisi "O'z qalbinga ishon, u seni hissiyotlaringni ifodalaydi", degan fikrga amal qilgan. O'sha davr manbalarida keltirilishicha, qobiliyat xohish-istak, ichki tuyg'u bilan ham uzviy bog'liq. Bu, ayniqsa, uyda, maktabda, ish joyida va boshqa jamoat joylaridagi hatti-harakatlarimizda namoyon bo'ladi. Pedagogika va psixologiya fanlarida qobiliyatlar quyidagicha tavsiflanadi:

1. Tabiiy qobiliyatlar odamlar va hayvonlar uchun xos bo'lib, idrok qilish xotirada saqlash, oddiy muloqotga kirisha olish shular jumlasidandir. Biologik jihatdan asoslangan bu qobiliyatlar asosini shartli reflekslar hosil bo'lish jarayoni tashkil etadi. Insondagi va yuksak darajada rivojlangan hayvonlardagi bu qobiliyatlar bir-biridan farq qiladi.

2. Maxsus insoniy qobiliyatlar ijtimoiy-tarixiy tabiatga ega bo'lib, ijtimoiy hayot va taraqqiyotni ta'minlaydi. Maxsus insoniy qobiliyatlar o'z navbatida umumiy va xususiy qobiliyatlarga bo'linadi.

3. Umumiy qobiliyatlar insonning turli faoliyatlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi aqliy qobiliyatlar xotira va nutqning rivojlanganligi, qo'l harakatlarini aniqligi va boshqa xususiyatlardan iborat. Xususiy qobiliyatlar alohida olingan bir faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bu qobiliyatlar alohida muloqotning bo'linishini taqozo etadi. Masalan, matematika, texnika, badiiy ijodiy, sportga bo'lgan qobiliyatlar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda umumiy qobiliyat haqida gapirganda ham maxsus qobiliyatlar yig'indisi ta'sirini ko'zda tutadilar. Kishining turli-tuman faoliyatlari orasida bittasi asosiy yoki yetakchi faoliyat sharoitida shaxsning maxsus taraqqiyotini belgilovchi faoliyat bo'lib ajralib turadi. Bu faoliyat tug'ma spesifik zehn nishonalarga mos tushishi mumkin.



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASINDA ARALIQTAN OQITIVDIN INTEGRACIYASI»

atamasindagi IV Xalqaraliq ilimiy-teoriyalik konferenciya

## Foydalangan adabiyotlar:

1. Karimova V. M. «Psixologiya» T.Sharq 2002y.
2. G'oziyev E. G'. «Umumiy psixologiya» 1-2 tom. Toshkent-2002y.
3. David G. Myers "Psychology". NY, 2010. WORTH PUBLISHERS 118p.
4. Davletshin M.G. «Umumiy psixologiya» T.: TDPU 2002
5. Psychology as the Behaviorist Views it John B. Watson (1913) First published in Psychological Review, 20, 158-177

